

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Sh.Shermuhhammadov, G.Mirzaaxmedova Bo'lajak tarix o'qituvchilarida analitik tafakkurni rivojlantirish texnologiyasi xorij olimlarining tadqiqotlarida.....	17
B.Q.Qurbonova Ta'limning zamonaviy globallashuv va axborotlashuv sharoitida rivojlanishga doir qarashlar....	22
S.M.Zokirova, M.R.Maxkamov O'zbekistondagi ta'limni tojik tilida olib boradigan maktablarda boshlang'ich sinf o'quvchilariga davlat tilini o'qitish jarayonida monolog va dialogning o'rni	27
G.I.Yuldasheva, O.M.Mirzaxamdova Sotsiologik tadqiqotlarda dasturiy ta'minot va Ibm Spss dasturidan foydalanish omillari.....	33
Sh.A.Ro'zaliyev Informatika turkum fanlarini o'qitishda geymifikatsiyadan foydalanish bosqichlarini axborotlarni qayta ishlash va uzatish asosida tashkil etishning metodik jihatlari	40
A.R.Abdullayeva Nikoh yoshi - oila barqarorligini ta'minlashning ijtimoiy psixologik omili	43
N.U.Alijonov Ta'lim sohasidagi rahbarlarning psixologik salomatligini tadqiq etish.....	49
M.Y.Atadjanov Mahalla – milliy identiklilikka tahdidlardan himoya omili.....	54
N.N.Ahmadjonov Ijtimoiy psixologiyada shaxsiy qadriyatlarini aniqlash tizimi.....	60
M.A.Djalalova Maktabgacha yosh davri bolalarining psixologik salomatligining empirik tahlili	65
N.A.Ergasheva Psixologik salomatlik hamda uning mezonlari.....	69
Sh.K.Mamajonova O'smirlarda addiktiv xulq shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillarini empirik o'rganish	73
D.M.Mo'minov Ommaviy axborot vositalaridagi manipulyativ omillarni inson ongiga tasirini o'rganish	81
D.M.Nuralieva O'zbek oilalarida oila qurish motivlarini o'rganishda empirik tadqiq etilganligining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	87
R.S.Nuriddinov Bo'lajak pedagoglar psixologik salomatligiga ta'sir etuvchi omillar.....	92
M.J.Rajabov Oilaviy munosabatlarda transakt rollar va ularning tahlili	96
F.S.Soliyev Zamonaviy ta'lim muhitida psixologik xavfsizlik va ijtimoiy-madaniy xavfsizligi indeksini oshirishning psixologik mexanizmlari	100
Sh.A.Usmonov Oilada bolaning o'zini anglashida ota-ona shaxsining roli	106
M.B.Yuldasheva Yolg'izlik hissining ifodalanish xususiyatlari	111
G.S.Yunusova O'quvchilarni kasb–hunarga yo'nalganligini psixologik tahlili	116
M.S.Zakirova Bolada shaxs fazilatlarini shakllanishida “Men” konsepsiyasining o'rni.....	121
H.A.G'anieva Maktab o'quvchilarining kasb tanlashga bo'lgan motivlarini ijtimoiy-psixologik xususiyatlari....	128
Л.Ю.Абдукадирова, Д.В.Мионов Интернет-зависимость школьников, как фактор снижения показателей в исследованиях PISA	134



UO'K: 37.018.11+372.4 (072)

BOLADA SHAXS FAZILATLARINI SHAKLLANISHIDA “MEN” KONSEPSIYASINING O'RNI**РОЛЬ ПОНЯТИЯ «Я» В ФОРМИРОВАНИИ КАЧЕСТВ ЛИЧНОСТИ У РЕБЕНКА****THE ROLE OF THE CONCEPT OF "I" IN THE FORMATION OF PERSONALITY QUALITIES IN A CHILD****Zakirova Muxabbat Sabirovna** 

Farg'ona davlat universiteti, psixologiya kafedrası dotsenti

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha yosh davridagi bolada shaxs fazilatlarini shakllanishida “men” konsepsiyasining o'ri va o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Ushbu masalani turli nazariyalar nuqtai-nazardan yondashuvlari va bu masalaga psixolog olimlarning qarashlari tahlil etilgan. Xorij olimlari R. Berns, V. Jeyms, I.S Kon, Ch.H. Kuli, J.G Meade, K. Rojers, V.V. Stolin, K. Xorni, T. Shibutani, E. Erikson, rus olimlari, L.N.Bojovich va N.I. Nepomnyashaya, V.S. Muxihaning shaxsning tarkib topishi va uning xususiyatlari va unda “Men” konsepsiyasining o'ri borasidagi nazariy va amaliy ishlari bo'yicha ma'lumotlar bayon etilgan. Bola shaxsini shakllanish jarayonini bolada “Men” konsepsiyasining shakllanishi bilan bog'liqligi va uni yuzaga kelishining sohalari, ya'ni o'zini anglash, faoliyat va uning motivatsiyasi, shaxslararo munosabatlar jarayoni bola shaxsini shakllanish asosiy manbalari sifatida qaralib, bu sohalarda bola shaxs fazilalarining shakllanishiga xos xususiyatlari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlil etilgan. Bu muammo yuzasidan empirik ma'lumotlar tahlil qilingan.

Аннотация

В данной статье описывается роль понятия «Я» и его особенности в формировании личностных качеств у ребенка дошкольного возраста. Анализируются подходы к данному вопросу с точки зрения различных теорий и взглядов учёных-психологов по данному вопросу. Зарубежные учёные Р. Бернс, У. Джеймс, И.С. Кон, Ч.Х. Кули, Дж.Г. Мид, К. Роджерс, У.В. Столин, К. Хорни, Т. Шибутани, Э. Эриксон, российские учёные Л.Н. Бойович и Н.И. Непомнящая, В.С. Представлены сведения о теоретических и практических работах Мухи по формированию личности и ее характеристикам и роли в ней концепции «Я». Процесс формирования личности ребенка связан с формированием у ребенка понятия «Я» и сфер его возникновения, то есть самосознания, деятельности и ее мотивации, рассматривается процесс межличностных отношений, как основные источники формирования личности ребенка, а также этапы формирования личности ребенка в этих сферах. Анализируются исследования, проведенные по ее характеристике. Проанализированы эмпирические данные по этой проблеме.

Abstract

This article describes the role of the concept of "I" and its specific features in the formation of personal qualities in a child of preschool age. Approaches to this issue from the point of view of various theories and views of psychological scientists on this issue are analyzed. Foreign scientists R. Burns, W. James, I.S Kohn, Ch.H. Cooley, J.G Meade, K. Rogers, W.W. Stolin, K. Horney, T. Shibutani, E. Erikson, Russian scientists, L.N. Bojovich and N.I. Nepomnyashaya, V.S. Information on the theoretical and practical work of Mukhi on the formation of the personality and its characteristics and the role of the concept of "I" in it is presented. The process of the formation of the child's personality is related to the formation of the concept of "I" in the child and the spheres of its occurrence, that is, self-awareness, activity and its motivation, the process of interpersonal relations are considered as the main sources of the formation of the child's personality, and the formation of the phases of the child's personality in these areas The research conducted on its characteristics is analyzed. Empirical data on this problem has been analyzed.

Kalit so'zlar: shaxs, “Men” konsepsiyasi, o'z-o'zini anglash, “Men”- ego, o'z-o'zini baholash, o'zini-o'zi tasdiqlash, faoliyat, muloqot

Ключевые слова: личность, концепция «Я», самосознание, «Я»-эго, самооценка, самоутверждение, деятельность, общение

Key words: personality, "I" concept, self-awareness, "I"-ego, self-evaluation, self-affirmation, activity, communication

KIRISH

Bugungi jadal rivojlanib kelayotgan yurtimizda muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevni tashabbuslari bilan ta'lim sohasida ko'plab islohotlar olib borilmoqda. Ayniqsa, ta'lim borasida Yurtboshimiz avvalo maktabgacha ta'lim tizimini yanada rivojlantirishga alohida e'tibor qaratdilar. Xususan, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning 2022-yil 7-martdagi PF-87-son farmonlari hamda "Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2019-yil 16-dekabrda O'RQ-595-son O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi Qonuni, Prezidentimizning joriy yil 30 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni hamda "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarorlariga muvofiq bu sohada yangi tizim yaratildi. 2019 yilning 8 may kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorni imzoladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida tizimda amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilinib, istiqboldagi vazifalar belgilab berilgan. Jumladan, ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish, maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish, maktabgacha ta'lim muassasalariga pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish mexanizmini takomillashtirishdan iborat dolzarb vazifalar qo'yildi.

Bola shaxsini shakllanishi, unga insoniy fazilatlarini shakllanishi masalasi har bir davrda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

Oila, jamiyat bola shaxsining shakllanishi va uning ijtimoiylashuviga ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida baholanadi. Ijtimoiylashuv jarayoni esa bolada inson zotiga xos bo'lgan xulq-atvor shakllarini egallash bilan ifodalanadi

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Maktabgacha yoshdagi bolalarda shaxsga xos fazilanlarning shakllanishi masalasini nazariy va amaliy tahlillar xorij va mahalliy psixologik pedagogik adabiyotlarda keng yoritilgan. Jumladan: Xorij olimlaridan: R. Berns, V. Jeyms, I.S Kon, Ch.H. Kuli, J.G Meade, K. Rojers, V.V. Stolin, K. Xorni, T. Shibutani, E. Erikson kabi olimlar "Men" konsepsiyasi uning shakllanish xususiyatlari, shaxsning o'zini o'zi anglash muammolarini va uni shaxs shakllanish bilan bog'liqligi masalalarni o'rganganlar. V.Jeyms esa "Men" konsepsiyasini o'rganishning asoschisi sifatida faoliyat yuritadi. "Men" konsepsiyasini o'rganish bo'yicha asosiy nazariyotchilar S. Kulli va D. Mid bo'lib hisoblanadilar. Ularning nazariyalari ushbu bitiruv malakaviy ishiga asos bo'ladi. R.A. Nijmeyer, M.D. Berzonkiy, R.M. Perkins, J. Adams-Veber va boshqalar "Men" konsepsiyasining xotirani tashkil etish, kognitiv murakkablik kabi kognitiv jarayonlarning turli xususiyatlariga, shuningdek, boshqa turli xil shaxsiy obrazining tuzilishiga ta'sirini o'rganganlar. Bundan tashqari J. Mid, R.A. Nijmeyer, M. D. Berzonkiy, R.M. Perkins, J. Adams-Veberlar tomoidan "Men" konsepsiyasining nazariy asoslaganlar, L.N.Bojovich va N.I. Nepomnyashaya, V.S. Muxihaning shaxsning tarkib topishi va uning xususiyatlari va unda "Men" konsepsiyasining o'rni borasida ilmiy tadqiqot olib borganlar. Bu mazvu ustida bir qancha xorij olimlari ishlaganligiga qaramasdan, zamonaviy adabiyotlarda ham yana ko'plab olimlar ushbu mavzuda turli xil ilmiy ishlarni olib bormoqdalar. "Men" konsepsiyasi shakllanishining boshlanishi bolaning boshqa odamlardan alohida xabardorligi bilan bog'liq. Faqatgina uning alohida ekanligini anglagan holda, bola boshqalar bilan munosabatlarni o'rnatishi mumkin. O'z-o'zini anglashning shakllanishini tushunishga bunday yondashuv ushbu jarayonning boshlanishi haqida bola hayotining birinchi kunlaridan boshlab gapirishga imkon beradi.[4,1] Maktabgacha yoshdagi bolada "men-konsepsiya"eng kam tuzilgan va bu davrda eng plastiklikka ega. O'z-o'zini anglash endigina uyg'onishni boshlagan bola bilan muloqot qilishda ota-onalarning monopoliyasi ularning munosabatlari uning "men-konsepsiyasi"asoslarini shakllantirishda hal qiluvchi omil bo'lishiga olib keladi. Bolaning konsepsiyasini yaratishda ota-onalarning ta'sirini ortiqcha baholash qiyin. Ushbu jarayon kundan-kunga va yildan-yilga uzluksiz bo'lib, bola hayotining barcha jabhalariga kirib boradi va uning hissiy tonalligi bilan kuchayadi. Bolaning rivojlanishida ota-onalar eng muhim muhit

rolini o'ynaydilar-ularning har bir so'zi yoki harakati bola uchun, ayniqsa bola uchun juda muhimdir.[1,3]

NATIJA VA MUHOKAMA

Tadqiqotimizda "Men" konsepsiyasining bola shaxsii shakllanishidagi o'rni o'rganish maqsadida rus olimlari V.S.Muxina va N.I.Nepomnyashaning maktabgacha yosh davridagi bolalarda "Shaxsning xos xususiyatlarning shakllanishi" metodikasidan foydalandik. Bu metodikamiz uchun 40 nafar qatnashuvchilarni tanlab oldik.

Tadqiqotining keyingi bosqichida o'zini anglash xususiyatlarini aniqlash maqsadida V.S.Muxina hamda N.I.Nepomnyashalar ishlab chiqqan maktabgacha yosh davrida bolalar hayotining turli jabhalarida o'zini anglash xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan savolnomadan foydalandik. Bolaning asosiy kundalik hayot faoliyat sohasida o'zini o'zi anglashning o'ziga xos xususiyatlarining real vaziyatlarda bolaning xulqida namoyon bo'lishi hisobga olindi.

So'rovnomaning birinchi guruhiga kiruvchi savollar bolaning o'zini, o'z qadr-qimmatini anglashi va unga munosabatini ifodalovchi savollardir.

So'rovnomaning ikkinchi guruhi uchun mo'jallangan savollar bolaning o'z faoliyat sohasini ifodalovchi savollardir.

So'rovnomaning uchinchi guruhi savollari bolalarning o'ziga nisbatan shaxslararo munosabatlarni aniqlashni ifodalovchi savollardir.

Savollarning ikkinchi guruhi – guruhdagi bolalarining faoliyat sohasini ifodalovchi savollar.

Savollarning uchinchi guruhi - o'zi shaxslararo munosabatining aniqlovchi savollar.

Tadqiqotlarimizni olib borishda Farg'ona shahar Uchko'prik tumani "Kichik kenagas" qishlog'ida joylashgan 17-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining tarbiyalanuvchilaridan 3, 4, 5, 6 yoshli bolalar tanlab olindi. Har bir yosh davridagi 10 nafardan bolalar tanlab olindi. Ushbu tadqiqotimizda jami 40 nafar bola ishtirok etdi.

Birinchi guruh qadr-qimmatni anglash va unga munosabatni ko'rsatkichlari bo'yicha turli yosh guruhida ko'rsatkichlar.

1-jadval

Bolalarning yoshi	1	2	3	4	5	6	7	Umumiy natija
4 yosh	7	1	7,5	8	5	3	5	59
5 yosh	10,5	5,5	12	9,5	9	12	11,5	69
6 yosh	16	6,5	14,5	15	18	14	16	99

Izoh: Savollar jadvalda raqamlar bilan berilgan.

1. Sen hayotda nimani hamma narsadan ham yaxshi ko'rasan?

2. Sen uchun nima muhim?

3. Sen hamma narsadan ham nima qilishni yaxshi ko'rasan?

4. Sen o'zingini yaxshi bola(qiz) deb hisoblaysanmi. Nima uchun?

5. Nima deb o'ylaysan, tarbiyachining seni yaxshi ko'radimi?

6. Boshqa bolalarchi?

7. Sen o'zingni aqilli bola (qiz)deb hisoblaysanmi?

Birinchi guruh - qadr-qimmatini anglash va munosabatni ifodalovchi savollar bo'yicha 4 yoshli bolalardagi ko'rsatkich 36,5 ni tashkil etdi.

Bolalar "Sen hayotda nimani hammadan ham yaxshi ko'rasan?", "Sen hammadan ham nima qilishni yaxshi ko'rasan?", "Sen o'zingni yaxshi bola(qiz) deb hisoblaysanmi?" degan savollarga qisqa, bir so'z bilan javob berdilar. "Nima uchun?" deb so'ralganda javob bera olmadilar. "Sen uchun nima muhim?" degan savolga yo'l- yo'riqlar berilsada javob berishga qiynaldilar. "Nima deb o'ylaysan, tarbiyachining seni yaxshi ko'radimi?", "Boshqa bolalarchi?" degan savolga bolalarning ko'pi "Ha" deb javob bersalarda, javobni izohlab bera olmadilar. "Sen o'zingni aqilli bola (qiz)deb hisoblaysanmi?" degan savolga bolalar "aqilli" tushunchasini yaxshi tushuncha ekanligini anglab etganlar.


Birinchi guruh- qadr-qimmatini anglash va munosabatni ifodalovchi savollar bo'yicha 5 yoshli bolalardagi ko'rsatkichlar 69 ni tashkil etdi

Bolalar "Sen hayotda nimani hammadan ham yaxshi ko'rasan?", "Sen hammadan ham nima qilishni yaxshi ko'rasan?", "Sen o'zingni yaxshi bola(qiz) deb hisoblaysanmi?" degan savollarga biroz izohlay bilan javob berdilar. "Nima uchun?" deb so'ralganda o'z javoblarini sodda ko'rinishda izohlay oldilar. "Sen uchun nima muhim?" degan savolga yo'l- yo'riqlar berilda nimani

yaxshi ko'rishlarini aytib bersalarda, shaxs fazilatlarini nuqtan nazardan yondosha oldilar. "Nima deb o'ylaysan, tarbiyachining seni yaxshi ko'radimi?", "Boshqa bolalarchi?" degan savolga bolalarning ko'pi "Ha" deb javob bergan javoblarini. "Sen o'zingni aqilli bola (qiz) deb hisoblaysanmi?" degan savolga bolalar "aqilli" tushunchasini yaxshi tushuncha ekanligini anglab etganlar.

Birinchi guruh- qadr-qimmatini anglash va munosabatni ifodalovchi savollar bo'yicha 6 yoshli bolalardagi ko'rsatkichlar 99 ga teng.

Bolalar "Sen hayotda nimani hammadan ham yaxshi ko'rasan?", "Sen hammadan ham nima qilishni yaxshi ko'rasan?", "Sen o'zingni yaxshi bola(qiz) deb hisoblaysanmi?" degan



savollarga bolalar kengroq javob bera olganlar. "Nima uchun?" deb so'ralganda o'z javoblarini shaxs fazilatlarini, uning ijobiy va salbiy xususiyatlari bilan bog'lab izohlay oldilar. "Sen uchun nima muhim?" degan savolga yo'l- yo'riqlar berildi, bunda bolalar javoblarini shaxs fazilatlarini va kundalik faoliyat bilan bog'lay olganlar. "Nima deb o'ylaysan, tarbiyachining seni yaxshi ko'radimi?", "Boshqa bolalarchi?" degan savolga bolalar o'zlarini xulq- atvorini tahlil qila olganlar. "Sen o'zingni aqilli bola (qiz) deb hisoblaysanmi?" degan savolga bolalar "aqilli" tushunchasining mohiyatini anglab etganlar.

1-rasm. Maktabgacha yoshda bolalarda turli yoshlarda qadr-qimmat tushunchasini anglash va unga munosabat ko'rsatkichlarining grafik holatdagi tahlili

Grafikdan ko'rinib turibdiki, 6 yoshda 4 va 5 yoshdagiga nisbatan o'zgarishga ya'ni rivojlanishda jadallik kuzatildi.

Bu davrga kelib bola o'zi haqida o'ziga nimalarni yoqtirishi uni qanday bola deb hisoblashlari haqida ancha to'laqonli javoblar berib, to'liq izohlay oldilar. Suhbat jarayonida yordamchi va aniqlashtiruvchi savollar kam talab etildi.

Ikkinchi guruh - bolaning faoliyat sohasini aniqlash bo'yicha umumiy ko'rsatkichi

2-jadval

Bola yosh guruhi	1	2	3	Umumiy ball
4 yosh	3,5	4	3,5	10,5
5 yosh	13	10,5	7	30,5
6 yosh	18	14	15	47

Izoh: Savollar jadvalda raqamlar bilan berilgan.

1.Sen nima qilishni judayam yaxshi ko'rasan?

2.Sen nimani yaxshi bajarasan?

3.Nimani yomon bajarasan?

Ikkinchi guruh - bolalarning faoliyat sohasining aniqlash bo'yicha 4 yoshli bolalardagi ko'rsatkichlari 10,5 ga teng.

Ular "Sen nima qilishni judayam yaxshi ko'rasan?" degan savolga ayrimlari oddiy, bir so'z bilan javob berganlar. "Sen nimani yaxshi bajarasan?" degan savolga deyarli javob bera olmaganlar, ayrim bolalar qaysidir ish harakatni ifodalab berganlar xolos. "Nimani yomon bajarasan?" degan savolga deyarli javob bera olmaganlar, ish harakatni ifodalab berganlar.


Ikkinchiguruh - bolalarning faoliyat sohasining aniqlash bo'yicha 5 yoshli bolalardagi ko'rsatkichlari 30 ga teng.

PEDAGOGIKA

Ular “Sen nima qilishni judayam yaxshi ko‘rasan?” degan savolga ayrimlari oddiy, bir so‘z bilan javob berganlar. “Sen nimani yaxshi bajarasan?” degan savolga bolalarning ayrimlari buyumlar bilan bog‘lagan bo‘lsalar, ayrimlari faoliyat bilan bog‘laganlar. “Nimani yomon bajarasan?” degan savolga bolalar ish harakatni ifodalab berga olganlar lekin mohiyatini to‘liq ifodalaganlar.

Ikkinchi guruh - guruh bolalarning faoliyat sohasining aniqlash bo‘yicha 6 yoshli bolalardagi ko‘rsatkichlari 47 ga teng.

Ular “Sen nima qilishni judayam yaxshi ko‘rasan?” degan savolga ish faoliyat bilan bog‘liqligini aytilgandan so‘ng javob bera olganlar va ifodalay olganlar. “Sen nimani yaxshi bajarasan?” degan savolga bolalarning faoliyat bilan bog‘laganlar. “Nimani yomon bajarasan?” degan savolga bolalar ish harakatni ifodalab bera olganlar.



2-rasm. Ikkinchi guruh - bolaning faoliyat sohasini aniqlash bo‘yicha umumiy ko‘rsatkichi

Grafikdan ko‘rinib turibdiki, bu yo‘nalishdagi savollarni anglashida 4 va 5 yosh oralig‘ida sezilarli o‘zgarishni ko‘rdik. 5 yoshga borib bola o‘z faoliyatini anglashda rivojlanishi ko‘zga tashlandi. Bola endi nimani yaxshi va yomon bajarishlarini ancha anglash boshladilar. Ularni izohlashga harakat qildilar.

Biz uchinchi guruh bo‘yicha savollarni psixologik tahlil qildik tahlil natijalariga ko‘ra :

Uchinchi guruh-o‘zining shaxslararo munosabatini aniqlovchi savollar 4 yoshli bolalar Sen o‘zingni mehribon bola (qiz) deb hisoblaysanmi , “Mehribon kishi nima degani?”, “Yovuz kishi nima degani?” ,»Guruhingda kim eng mehribon?”, “Guruhingda kim eng yovuz?” savollarga “yomon”, “yaxshi” kabi bir jumla bilan javob berganlar, lekin izohlay olmaganlar. “Seni rag‘batlantirishadimi?, Kim? Nima uchun?” degan savolar javob bera olmaganlar. “Seni so‘kishadimi? Kim? Qachon? Nima uchun? “ degan savolga qo‘shimcha ko‘rsatmalar asosida “ha”, “yoq” deya olganlar xolos.”Guruhda kim senga juda ham yoqadi?”, “Guruhda kim senga judayam yoqmaydi?” degan savolga ayrim bolalar guruhidagi bolaning ismini aytgan xolos. “Sen qachon norozi bo‘lasan?” “Sen yig‘layotgan bolani ko‘rsang nima qilgan bo‘larding. O‘zingni qanday his etasan?”, “Sen guruhingdagi qaysi bolaga o‘shashni xohlaysan?” degan savollarga ayrimlari bir so‘z bilan javob berganlar, ayrim bolalar esa savollar mohiyatini tushunib etmaganlar.

Uchinchi guruh-o‘zi shaxslararo munosabatining aniqlovchi savollar 5 yoshli bolalar “ Sen o‘zinigni mehribon bola (qiz) deb hisoblaysanmi “, “Mehribon kishi nima degani?”, “Yovuz kishi nima degani?”, “Guruhingda kim eng mehribon?”, “Guruhingda kim eng yovuz?” savollarga “yomon”, “yaxshi” kabi bir jimla bilan javob berganlar, hamda biroz sodda ko‘rinishda ifodalaganlar. “Seni rag‘batlantirishadimi? Kim? Nima uchun?” degan savolarga qo‘simcha ko‘rsatmalar asosida oddiy qilib javob bera olganlar. “Seni so‘kishadimi? Kim? Qachon? Nima uchun? “ degan savolga qo‘shimch ko‘rsatmalar asosida “ha”, “yo‘q” deya olganlar va ayrimlari o‘z xulqlari bilan bog‘laganlar.”Guruhda kim senga judayam yoqadi?”, “Guruhda kim senga judayam yoqmaydi?” degan savolga bolalar guruhidagi bolaning ismini aytgan xolos. “Sen qachon norozi bo‘lasan?” “Sen yig‘layotgan bolani ko‘rsang nima qilgan bo‘larding. O‘zingni qanday his etasan?”, “Sen

guruhingdagi qaysi bolaga o'shashni xohlaysan?" degan savollarga bolalar o'z fikrlarini sodda ko'rinishda tushintirganlar. Kishilarga yordam berish hissini ifodalaganlar.

Uchinchi guruh-o'zi shaxslararo munosabatining aniqlovchi savollariga 6 yoshli bolalar "Sen o'zinigni mehribon bola (qiz) deb hisoblaysanmi", "Mehribon kishi nima degani?", "Yovuz kishi nima degani?", "Guruhingda kim eng mehribon?", "Guruhingda kim eng yovuz?" savollarga shaxsning "ijobiy", "salbiy" fazilatlarini bilan bog'lab tushuntirib bera olganlar. "Seni rag'batlantirishadimi? Kim? Nima uchun?" degan savolga qo'simcha ko'rsatmalar asosida javob bera olganlar. "Seni so'kishadimi? Kim? Qachon? Nima uchun?" degan savolga "ha", "yoq" degan javoblarni xulqning salbiy xususiyatlari bilan bog'laganlar. "Guruhda kim senga judayam yoqadi?", "Guruhda kim senga judayam yoqmaydi?" degan savolga bolalar guruhidagi bolaning ismini aytib, izohlab berganlar. "Sen qachon norozi bo'lasan?" "Sen yeg'layotgan bolani ko'rsang nima qilgan bo'larding. O'zingni qanday his etasan?" "Sen guruhingdagi qaysi bolaga o'shashni xohlaysan?" degan savollarga bolalar o'z fikrlarini ifodalab, tushuntirib berganlar. Kishilarga yordam berish kerakligini tushunib berganlar.

Natijalarni tahlil etar ekanmiz birinchi guruh - bo'yicha natijalarga e'tibor qaratsak:

4 yoshli bolalar o'zlarini fazilatlarini tahlil etishga oid savollarga to'liqroq javob berdilar. Bu davrda "Sen uchun nima muhim?" degan savollar aniqlashtiruvchi yo'l yo'riqlar berilganda ham biroz javob berishga qiynaldilar. O'zlarini yaxshi aqilli ekanliklarini takidlasalarda, ularni izohlashga qiynaldilar.

Nima qilishni yaxshi ko'rishini so'raganimizda esa yana yordamchi savollar bilan ko'proq yo'llanma berildi. O'ziga boshqalar nuqtai-nazaridan baho bersalarda ularni izohlay olmadilar. Bular bu davrda javoblar qisqa bo'lib izohlashga qiynaldilar.

5 yoshli bolalarda o'zini o'zi aniqlovchi savollar biroz to'liqroq javob berdilar. Bu davrga kelib bola o'zi haqida berilgan savollarga birmuncha izohlarni bera oldilar. Boshqalar nuqtai-nazaridan o'ziga ham baho berishga o'zidagi ijobiy xulq mavjudligi bilan bog'lay oldilar.

6 yoshda 4 va 5 yoshdagiga nisbatan o'zgarishga ya'ni rivojlanishda jadallik kuzatildi.

Bu davrga kelib bola o'zi haqida o'ziga nimalarni yoqtirishi uni qanday bola deb hisoblashlari haqida ancha to'laqonli javoblar berib, to'liq izohlay oldilar. Suhbat jarayonida yordamchi va aniqlashtiruvchi savollar kam talab etildi.

Bundan ko'rinib turibdiki, maktabgacha yosh davrda qadr-qimmat tushunchasini angly boshlaydilar va bu uning shaxsini shakllanishida muhimdir.

Ikkinchi guruh -savollari ya'ni bolaning faoliyat sohasining aniqlashga qaratilgan savollar bo'yicha berilgan savollarga 4 yoshli bolalar nimani yaxshi ko'rishlarini ayta olsalarda lekin izohlashga qiynaldilar. Nimani yaxshi bajarishlariga qisman javob bersalarda, nimani yomon bajarishlarini deyarli ko'rsatib bera olmadilar.

Bu yo'nalishdagi savollarni anglashida 4 va 5 yosh oraliqida sezilarli o'zgarishni ko'rdik. 5 yoshga borib bola o'z faoliyatini anglashda rivojlanishi ko'zga tashlandi. Bola endi nimani yaxshi va yomon bajarishlarini ancha anglash boshladilar. Ularni izohlashga harakat qildilar.

6 yoshga borib esa o'z faoliyatlari va xatti-harakatlarini mohiyatini to'liqroq izohlay oldilar.

Uchinchi guruh- o'zi va shaxslar aro munosabatni anglash bo'yicha 4 yoshli bolalarga nisbatan savollarni birinchi ko'rinishda yo'naltiruvchi ko'rsatmalar asosida javob berdilar. Javoblar qisqa bo'lib, izohlar ham qisqa bo'ldi. O'zini rag'batlantirishi nima uchunligini angly yetishga qiynaldilar. Yig'layotgan bolaga ayrimlari hayriqoq bo'lishlarini ifodalasalarda, ko'plari "Hech nima" deb javob berdilar. Kishilarga xos fazilatlarini yaxshiroq angly yetishlari namoyon bo'ldi. Tadqiqotlardagi bolalarning fel-atvorlari bilan ularning hulqlarining bog'ladilar. Lekin uni izohlab bera olmadilar. Bu ijobiy xulqli bolalarni yoqtirishlari yomon xulqlarni yoqtirmasliklarini ham ifodaladilar.

5 yoshga borib bola o'zi va shaxslararo munosabatni anglashlarida taraqqiyot yuzaga kelib, bolalar yaxshilik va yomonlik uning mohiyati, ijobiy fazilat va salbiy fazilatlar, ularni xulq bilan bog'lashda kengroq izohlab bera oldilar. Yaxshi ishlar qilganlarida rag'batlantirishgani, yomon ishlar qilganlarida jazolashganliklarini soda ko'rinishida bo'lsada ifodalay boshladilar. Bu sohada 6 yosh davriga kelib taraqqiyotida keskin jadallik namoyon bo'ldi. Endi bolalar ijobiy, salbiy fazilatlarini izohlay oldilar. Jazo va rag'batni mohiyatini angly oldilar. Guruhdagi bolalarning xulqiga, fazilatlariga kengroq izoh berishga harakat qildilar. Yig'layotgan bolani yupatish kerakligi, unga rahmlari kelayotganliklarini ifodaladilar.

XULOSA

1. Bolaning o'zini anglash faoliyat va uning motivatsiyasi, shaxslararo munosabatlar jarayoni bola shaxsini shakllanishining asosiy manbalari bo'lib, bu jarayonlarda bolaning shaxsiga xos xususiyatlar namoyon bo'ladi.

2. Bola yoshi ortgan sari atrofda kishilar yordamiga o'zini anglash, tanish, xulq-atvori, shaxsiga xos sifatning anglash orqali bola taraqqiyoti yuzaga keladi.

3. Maktabgacha yosh davri shaxsning shakllanishining boshlang'ich bosqichi hisoblanib, uning xulqida namoyon bo'ladi va bu shaxning keyingi taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega.

Demak, bolada o'zini anglash dastlab psixofiziologik jihatdan o'zini tashqi ko'rinishiga qarab tanishdan boshlanadi. Sekin –astalik bilan bolada bu “ Menga” va “ Men emasga” tegishli narsalarni farqlashga aylanadi. Bu xususiyatlar bolaning mazmun- mohiyati jihatdan shaxs sifatida anglash bo'lmada bu jarayon bolaning o'zini shaxs nuqai-nazardan anglashning dastlabki bosqichi deyish mumkin. Bola 2-3 yosh oralig'ida o'zini anglash shaxs fazilatiga aylanadi. Bola endi o'zin haqida fikr yuritganda o'z fazilatlariga murojaat qila boshlaydi. Bolada shaxsiga xos fazilatlar tarkib topa boshlaydi. Demak, bolaning keyingi shaxs taraqqiyotida o'zini anglashi muhim bo'lib, bu maktabgacha yosh davrdan boshlab yuzaga kela boshlaydi. Bu bolaning yoshiga bog'liq holda taraqqiy etib boradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsiy tajribani o'zgartirishga qaratilgan «men harakat qilaman». Ijobiy o'zini rivojlantirish g'oyalar, o'z-o'zini taassurotlar to'plash orqali amalga oshiriladi, keyinchalik ular yangi o'qlar va yadrolarga, so'ngra global o'ziga birlashadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev Miromonovich raisligida 19 oktabr kuni maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishi.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 sentyabrdagi “Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3261-sonli qarori.

3. Аверин А.В. Психология личности: Учебное пособие.- СПб.: Изд-во Михайлова В.А., 1999.- 89с.

3. Венгер А., Мухина В.С. Психология. - Москва, “Просвещение” 1988. - 240 стр.

4. Бернс Р. Развитие Я-концепции и воспитание. - М.: Прогресс, 1996. – 420 с.

5. Колядин А.П. Подходы к изучению «Я-концепции» в психологической науке. [Электронный ресурс] // Северо-Кавказский государственный технический университет (СевКавГТУ), [web-сайт]. 23.06.2007. <http://www.ncstu.ru>>(20.04.2010).

6. Непомнящая Н.И. Становление личности ребёнка 6-7 лет. – Москва: “Педагогика”, 1992. - 11 с.

7. Тертель А.Л. Психология. Курс лекций : учеб. пособие. - М. : ТК Велби, Изд-во Проспект, 2006. - 248 с.

8. Эриксон Э. Г. Детство и общество / Пер. [с англ.] и науч. ред. А. А. Алексеев. - СПб.: Летний сад, 2000. - 300 с.